

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil “30” 06

SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI TARIXI
FANINING O'QUV DASTURI


Bilim sohasi:	200 000	– San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000	– Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo’nalishi:	60220500	– Falsafa

Toshkent – 2025

“Sharq sivilzatsiyasi va falsafa” fakulteti dekani:  Askarov M.M.

“Sharq falsafasi va germenevtika” kafedrası mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig‘i

 Yuldasheva M.M.

Фан/модул коди SHFMT13-830	О'quv yili 2026/2027 2027/2028 2028/2029	Semestr 3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 4,6,6,6,4,4	
Фан/модул turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4,6,6,6,4,4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sharq falsafasi va madaniyati tarixi	360	540	900
2.	<p align="center">I. Fanlarning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Sharq falsafasi va madaniyati tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, muammolari; uning jahon falsafasi va sivilizatsiyasida tutgan o'rni, uning G'arb falsafasi va madaniyati bilan o'zaro ta'siri, falsafiy fikr rivojida milliylik va umuminsoniylik, vorisiylik va yangilanish dialektikasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – Sharqdagi turli falsafasiy maktablar, konsepsiya va ta'limotlar, muammolarning mazmuni va mohiyatini tarixiy davr madaniyati bilan ozaro aloqadorlikda ochib berish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi: Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden universiteti (ARWU 111) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1 https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/leiden-university</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p align="center">SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI TARIXI</p> <p align="center">1-mavzu. «Sharq falsafasi va madaniyati tarixi» fanining predmeti va vazifalari</p> <p>«Sharq falsafasi va madaniyati tarixi» fanining predmeti, maqsadi va strukturasi. Fanning «Ontologiya va bilish nazariyasi», «Axloq va nafosat falsafasi», «Ijtimoiy falsafa» va boshqa mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi.</p>			

Fanni o'zlashtirish jarayonida Sharq falsafasi namoyandalarning ta'limotlarini ularning asarlaridan olingan namunalar asosida o'rganish, tavsiflash va komparativistik tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati. Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganishning metodologik masalalari. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o'ziga xos xususiyatlari. Sharq va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri. Sharq renessansi tushunchasi, mohiyati. Uning G'arb renessansiga ta'siri. Sharq falsafasining jahon falsafasi, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

Sharq falsafasiga oid manbalarni qidirib topish, tasniflash hamda ahamiyatini xolis baholash. Manbalarga germenevtik yondashishning mohiyati.

2-mavzu. Qadimgi Sharq xalqlari madaniyati. Qadimgi Sharqda asotir tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi

Jahon xalqlari madaniyatini o'rganishda «Sharq» va «G'arb» tushunchalarining mazmuni va mohiyati. Sharq va G'arb madaniyati tiplari. Sharq mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlari. Qadimgi Sharq xalqlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi.

Sharqda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi. «Daryo sivilizatsiyalari». Moddiy madaniyatga oid yodgorliklar. Tarixiy davrlashtirish. Ilk dehqonchilik madaniyatlari. Arxeologik topilmalar, qadimgi shaharlar. Hududiy jamoalarning paydo bo'lishi. Muqaddas kitoblar sharq xalqlari tarixiga oid muhim manba.

Falsafiy tizimlarning uzoq tarixga ega ekanligi. Insonni o'rab turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borganligi. Tilning rivoji va avvalo majhul tushunchalarning paydo bo'lishi nazariy tafakkurning shakllanishiga turtki bo'lganligi. Dunyoni asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) orqali tasvirlash. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish zamon haqidagi tasavurning paydo bo'lishiga sabab bo'lganligi. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlaganligi. Sharq faylasuflari tomonidan haqiqat to'g'risidagi shakllantirilgan tasavvurlarni bugungi erishilgan nazariy natijalar bilan qiyoslashning zarurligi. Sharqona tafakkur tarzini shakllantirish manbalari.

3-mavzu. Qadimgi Misrda madaniyat

Misr dini. Qadimgi Misr madaniyatining asosiy tamoyili. Kanonning shakllanishi. Din va diniy islohotlar. Til, yozuv, ta'lim tizimi va adabiyot. Tasviriy san'at va me'morchilik. Ilk tabiatshunoslik ilmlarining paydo bo'lishi.

Misrda ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi. Afsonalarni falsafiy nuqtai nazardan talqin qilishga urinishlar. «Ilohiy iroda» talqinini ruhoniylar o'z ixtiyorlariga olganliklari.

4-mavzu. Qadimgi Misrda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi

Misrda ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi. Afsonalarni falsafiy nuqtai nazardan talqin qilishga urinishlar. «Ilohiy iroda» talqinini ruhoniylar o'z ixtiyorlariga olganliklari.

Dunyoaviy fikrlashga o'tish va huquqiy me'yorlar to'plamlari. Qadimgi afsonalardagi mafkuraviy jihat. Jamiyatda inson o'rni haqidagi bahs. «Inson hayotining ma'nosi nima?» degan savolni ko'ndalang qo'yilishi.

Misrliklar tasavvurida inson tabiati, o'limi va narigi dunyodagi hayot. «Ismga ega bo'lmagan narsa, mavjud bo'lmaydi» tamoyili.

«Arfa chaluvchining qo'shig'i» asarining mazmuni. O'lganlardan hech birining narigi dunyodan qaytib kelmaganligi to'g'risidagi fikr. Yerdagi hayotga berilgan baho. «Hayotdan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z ruhi bilan suhbat» qo'lyozmasining mohiyati.

5-mavzu. Mesopotamiya xalqlari tafakkuri va madaniyati

Qadimgi Mesopotamiya. Mesopotamiya rivoyatlarining o'ziga xosligi. Shaharlarning madaniy markazlar sifatida shakllanishi.

«Gilgamesh haqida afsona» va uning boshqa xalqlar madaniyatlariga ko'rsatgan ta'siri. Ikki daryo oralig'i tasviriy san'ati va me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Shumer va Bobilda ijtimoiy tafakkur. Baynalnahravn (Mesopotamiya) madaniyati. Shumerliklar marosimi va taqdir haqidagi tasavvurlar. Shumerliklarning mixxat yozuvi. To'fon to'g'risidagi Shumer afsonasi. Xammurapi qonunlari majmuasi. Yuridik hujjatlarda ko'proq dunyoaviy jihatlarining hisobga olinganligi.

6-mavzu. Eron, Kavkazbo'yi va Sharqiy O'rtaer dengiz bo'ylari xalqlari madaniyati

Elam o'lkasi. Elam madaniyati. Eronda qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik. Ahmoniyar imperiyasi. Ahmoniyar madaniyati. Midiya madaniyati.

Qadimgi Suriya. Shaharlarning madaniy markazlar sifatida shakllanishi. Suriyada qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik. Mitanni madaniyati. Qadimgi Finikiya madaniyati Qadimgi Finikiyada qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik. Falastin madaniyati.

7-mavzu. Qadimgi Kichik Osiyo yarim oroli xalqlari tafakkuri va madaniyati. Kavkazorti xalqlari madaniyati

Qadimgi Xett davlati. Qadimgi, o'rta va yangi Xett davri madaniyatlarini. Shaharlarning madaniy markazlar sifatida shakllanishi. Qadimgi Xett davlatida qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik. Frigiya madaniyati. Lidiya

madaniyati. Qadimgi Urartu. Urartu rivoyatlarining o'ziga xosligi. Shaharlarning madaniy markazlar sifatida shakllanishi. Urartuda qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik.

8-mavzu. Qadimgi Yunon, Iskandariya va Suriya falsafasi

Yunon falsafasining so'nggi markazlaridan biri bo'lgan Iskandariya shahrining arablar qo'liga o'tishi. Yunon tilini o'rganish hamda Harron va Jandishopurdagi ilmiy markazlar. Yoqub Rahoviyning (vaf. 708 yil) ilohiyot va falsafaga doir asarlarning yoyilishi. Kvint Sentimiy Florens Tertullian (160-230)ning moniylikka qarshi qaratilgan g'oyalarning suriyoniy tilga tarjima qilinganligi.

9-mavzu. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Qadimgi Turon va Eron xalqlari tafakkuri.

«Avesto»dagi diniy-falsafiy g'oyalar

Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiy hududidagi ilk davlatlar madaniyati. Yunon–Baqtriya madaniyati miqyosida Sharq ellinistik madaniyati. Kushon madaniyati. Zardo'shtiylik va uning jahon dinlari shakllanishiga ta'siri. «Buyuk ipak yo'li» – Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi madaniy muloqot yo'li.

Jo'g'rofiy tushuncha bo'lgan Turonda yashagan turkiy xalqlarning qadimgi boy milliy qadriyatlari. Turon va Eron xalqlarining og'zaki ijodi. Yozma yodgorlik «Avesto»dagi falsafiy g'oyalar va axloqiy tamoyillar. Uning «Yashtlar», «Gohlar» qismidagi tasavvurlar. «Vendidod» qismidagi huquqshunoslikka oid fikrlar. Axuramazda irodasi.

10-mavzu. Markaziy Osiyoda buddaviylik diniy-falsafiy ta'limoti

Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotining Markaziy Osiyoga yoyilishi. Shoh Ashokaning faoliyati. Buddaviylikning ikki jihati. Narsalar tabiati haqidagi va bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limot. Draxmalar – «o'zining belgilariga ega bo'lgan zarrachalar» yoki «unsurlar» haqidagi tushuncha. Buddaviylikning Mohayana falsafiy tizimi. Axloqqa oid muammolar va xalqni sabr-qanoatga da'vat etish. Tarkidunyochilik g'oyasi.

11-mavzu. Markaziy Osiyoda moniylik ta'limoti

Markaziy Osiyoda moniylik ta'limotining vujudga kelishi. Moniychilikning falsafiy-ilohiy ta'limoti. «Zulmat va ziyo dunyosi»ning mavjudligi. Zulmat dunyosida adolatsizlik, zulm, zo'rvonlikning hukm surishi, ziyo dunyosida esa abadiy, yemirilmaydigan, qadriyatlar borligi. Moniylikning «Xuastuanift» yodgorligi. Mazdak ta'limotida qadriyatlar mavzusi. Asosiy yovuzlik – boylikka xirs qo'yishdir. Adovat va hasadni yo'q qilishga qaratilgan tadbirlar va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish muqaddas vazifa ekanligi haqidagi g'oyalar.

12-mavzu. Qadimgi turkiy bitiklar falsafasi

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari. Xalq og'zaki ijodi va afsonalarda milliy qadriyatlarining aks etishi. Turkiy xalqlar yozuvi. Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ugin, Kulichur, Moyunchur bitiktoshlari. Sug'd, uyg'ur, moniy yozuvlari.

Qadimgi turkiy bitiklarlarda aks ettirilgan g'oyalarning germenevtik tahlili.

O'RTA ASRLAR YAQIN VA O'RTA SHARQ, MARKAZIY OSIYO FALSAFASI VA MADANIYATI

13-mavzu. Arab xalifaligi va musulmon sulolalari hukmronligi davrida madaniyat

Islom dini va madaniyati. Diniy va dunyoviy ilmlar rivoji. Ilm-fan, falsafa va din. Kalligrafiya. Adabiyot. Islomda belgi va ma'no. Arab xalifaligi madaniyatining shakllanishi. Bagdoddagi "Bayt ul-hikma" va Xorazmdagi "Ma'mun akademiyasi" faoliyatining ilm-fan rivojidadagi o'rni.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati. Islom madaniyati. Islom ilohiyoti – kalom falsafasining vujudga kelishi (VIII-IX asrlar).

Makaziy Osiyo Uyg'onish davri madaniyatida islomiy qadriyatlar. Islom dinida shaxs ma'naviy qiyofasining talqini. Uyg'onish davri tushunchasi. Uni davrlashtirish masalasi. Sharq Uyg'onish davrining rivojlanish bosqichlari, uning o'ziga xos xususiyatlari. Amir Temur va Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri. Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. Kalligrafiya, tasviriy san'at, me'morchilik.

14-mavzu. Qur'oni Karim va Muhammad (s.a.v.) hadislarini ta'limotining shakllanishi

Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va rivoji. An'anaviy ilmlar taraqqiyoti. Islomiy ilmlar rivojida Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan olimlar hissasi. Hadislarda bayon etilgan islomiy tarbiyaning asosi imon va solih amallardan iboratligi.

15-mavzu. Islom ilohiyoti – kalom falsafasining vujudga kelishi (VIII-IX asrlar)

Kalom ilmining vujudga kelishi. Mutakallimlar (kalom ilmi vakillari) va faylasuflar orasidagi farq. Mu'tazila oqimi (Hasan al-Basriy, Vosil ibn Ato). Abul Hasan al-Ash'ariy maktabi. Ash'ariy va uning izdoshlari ilk islomni mantiqiy va falsafiy dalillar yordamida saqlab qolishga harakat qilganliklari. Abu Mansur Muhammad al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy (X asr) maktabi.

**16-mavzu. Islom dunyosiga yunon falsafaning kirib kelishi
Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning falsafiy qarashlari**

Iskandariya ilmiy markazi. Ummaviy xalifalar davridagi ilmiy tarjimachilik. Abbosiy xalifalar (Ma'mun) davridagi ma'rifatchilik. Abu Yusuf ibn Ishoq al-Kindiy (800-879)ning falsafiy qarashlari. «Besh mohiyat haqida kitob». Kindiyning islom dunyosiga makon tushunchasini olib kirganligi.

17-mavzu. Ibn Ravandiyning falsafiy qarashlari

IX asrdagi falsafiy bedoriik. Ibn Ravandiy (vaf. 910) va mu'tazila e'tiqodi. Ilohiyotga doir bahslar. Ibn Ravandiyning tanqidiy dunyoqarashi. «Kitob al-intisor», «Kitob az-zumurrud». Ravandiyning vahiyni g'ayri zaruriy narsa hisoblaganligi. Musulmon ilohiyotchilari (al-Hayyot, al-Ash'ariy, al-Jubboiy va boshqalar) tomonidan Ibn Ravandiy qarashlariga qarshi ko'plab «Raddiyalar» yozilganligi.

18-mavzu. Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning falsafiy qarashlari

Roziy (865-925)ning hayoti va ilmiy faoliyati. Roziyning falsafaga oid asarlari. Roziyning falsafiy qarashlari. «Kitob tibt ar-ruxoniy» («Ruhiy davolash kitobi»), «Kitob siyrat al-falsafiya» («Falsafiy hayot tarzi haqida kitob»), «Maqola fi amorat iqbol va ad-davlati» («Baxt-saodat va boylikka erishish yo'llari haqida maqola»). Roziyning jon haqidagi fikrlari. Xudo insonni yaratib, «o'z ilohiy zoti»dan unga aql ato etganligi. Aql ruhni inson jismidagi zaminiy uyqudan uyg'otib, o'zining asliy vatani bo'lgan, aqliy jahonga qaytarganligi. Roziyning zamon to'g'risidagi nazariyasi.

19-mavzu. Ismoiliylarning falsafiy ta'limoti

Ismoiliylar oqimiga tegishli qarmatiylar shahobchasining vujudga kelishi. Ismoiliylarning falsafiy qarashlari. Ismoiliylarning aqidasi Aflotun, Arastu, yangi aflotunchilik, yangi pifagorchilik, xristian gnostisizmi ta'limotlari ta'sirida shakllangan murakkab tizim ekanligi. Bu tizimga binoan, barcha mavjud narsalarning yagona ibtidosi oliy sir (arabcha – al-g'ayb taolo) bo'lib, uni ta'riflab ham, bilib ham bo'lmaydigan, biror-bir sifatga ega bo'lmagan, ammo abadiy sokinlikda turuvchi zot, ya'ni «mutlaq xudo» ekanligi. U ijodiy javharni o'zidan ajratadi, u esa, o'z navbatida umumiy aql (arabcha – aql al-kull) bo'lib, xudoning barcha sifatlariga ega. Umumiy aql o'zidan nur chiqarib (emanatsiya) umumiy ruhni (arabcha – nafs al-kull) paydo qilishi. Emanatsiyaning yetti bosqichi tashkil topishi.

O'rta asr tafakkurining yirik namoyandalari Abul Alo al-Ma'riy, Rudakiy, Ibn Sino va boshqalarga qarmatiylar mafkurasi ta'sir ko'rsatganligi. Mashhur

shoir va mutafakkir Nosir Xisrav esa, ismoiliylarning yirik namoyandalardan biri bo'lganligi.

20-mavzu. Islom dunyosida yangi aflatuncha falsafiy qarashlar.

Abu Nasr Forobiy

Yangi aflatuncha yo'nalishning paydo bo'lishi. Forobiyning (873-950) hayoti va ilmiy merosi. Forobiy – «Ikkinchi muallim». Forobiy ontologik qarashlarining g'oyaviy ildizlari. Borliqning olti bosqichi – Xudo, osmoniy mohiyatlar, faol aql, jon, shakl, materiya haqidagi talimoti. Forobiy ontologik va kosmologik ta'limotida panteizm va neoplatonizm g'oyalari. Arastu ta'limotoining yangicha talqini. Fanlar tasnifi. Bilishda sezgi va tafakkurning roli va munosabati. Mantiq ilmi va uning bilish va ilm-fan rivojidadagi o'rni. Forobiy mantiqiy qarashlarining metodologik ahamiyati. Forobiy jamiyat va axloq haqida. Inson-ijtimoiy-siyosiy mahluq. Inson jamoalarining shakllari va tuzilishi. Inson jamoalarining mohiyati, maqsadi va intilishi jihatdan farqlanishi. Hukmronlik shakllari. Davlatning kelib chiqish sabablari. Ijtimoiy kelishuv. Inson hayotining mazmuni va baxt-saodatga erishuv vositalari.

21-mavzu. Abu Abdulloh Xorazmiyning falsafiy qarashlari

Abu Abdulloh Xorazmiy (vaf.997)ning hayot yo'li va «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari») asari. «Mafotih al-ulum»da fanlar tasnifi. An'anaviy va arab ilmlari. Xorazmiy dunyoviy ilmlar tasnifida ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga harakat qilganligi. Abu Abdulloh Xorazmiy tomonidan yaratilgan ilmlar tasnifining keyingi ilf-fan va madaniyat rivojidadagi ahamiyati.

22-mavzu. Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)ning hayoti va ilmiy merosi. Abu Rayhon Beruniy borliq haqida. Abu Rayhon Beruniyning bilish nazariyasi. Beruniy-tajribaviy metod asoschisi. Aqlning mohiyati va vazifasi. Haqiqat mezoni masalasi. Inson ongida noto'g'ri bilimlar vujudga kelishining obyektiv va subyektiv sabablari. Nufuz (avtoritet)larga bo'lgan munosabat. Ikki xil haqiqat masalasi. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy qarashlarining gumanistik xarakteri. Insonning oliy fazilati boshqalar haqida, ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilishdan iborat ekanligi.

Beruniy – oʻrta asrning qomusiy olimi. Beruniy tabiiy-ilmiy qarashlarining ilmiy va dunyoqarashlik ahamiyati.

23-mavzu. Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlari

Ibn Sinoning (980-1037) hayoti va ilmiy merosi. Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari. “Vojib ul-vujud” va “mumkin ul-vujud – haqidagi ta’limoti. Allomaning fanlar tasnifi. Bilish nazariyasi va mantiq’i. Oʻz davrining eng yirik falsafiy qomusi boʻlgan arab tilidagi «Kitob ash-shifo»ning boshlangʻich 9 kitobi toʻlaligicha mantiq ilmiga bagʻishlanganligi. «Donishnoma» – mantiq ilmiga bagʻishlangan fundamental asar ekanligi. Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Har qanday davlat adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida jamiyatni idora etilishi zarurligi. Ibn Sino ilohiyoti.

Tashqi koʻrinishdan umumiy nazariya aqldan kelib chiqishi. Aql esa ilohiy olamdan, farishta vositasida yetkazilishi. Xilqat bir martalik tasodifiy yoki azaldagi iroda emas, balki ilohiy zaruratdan kelib chiqishligi.

24-mavzu. «Ixvon as-safo» («Sof birodarlar») falsafiy maktabining falsafiy ta’limoti

Pifagor falsafasiga musulmonlarning qiziqishli yunon va Iskandariya madaniyatining bevosita ta’siri ostida yuz berganligi. Musulmon mutafakkirlarini tavhid (yakkaxudolik) masalasi qiziqtirganligi uchun ular Pifagor nazariyasiga murojaat etganligi. Pifagor falsafasining islom olamiga yoyilishi. «Ixvon as-safo» ta’limotiga pifagorchilikdagi tarki dunyochilik gʻoyasining ta’siri. Inson tanasi «Ixvon as-safo» qarashlariga binoan katta olam boʻlgan Koinotning xulosasi ekanligi. Inson dunyoni bilishning kaliti boʻlsa, mohiyati esa uning oʻzini bilishda ekanligi.

25-mavzu. Islom dunyosiga falsafiy madaniyatning yoyilishi.

Abu Hayyon Tavhidiy, Ibn Miskavayh va Yah’yo ibn Adiyning falsafiy va axloqiy qarashiari

Abu Hayyon Tavhidiy (vaf. 1023) falsafiy mushohadalari. Uning «Al-imto val mu’onisata» asari. Uning fikricha, agar aqlning oʻzi haqiqatni kashf etish uchun yetarli boʻlganda, dinning mavjudligi ortiqcha boʻlishi mumkinligi.

Ibn Miskavayh (taxm.932/935-1031)ning falsafiy qarashlari. Uning Shari olamida «al-Muallim as-salis» («Uchinchi muallim») nomi bilan ham tanilgani. «Tajarib ul-ummam» («Xalqlar tajribasi») asari umumiy jahon tarixiga bagʻishlangan va musulmon madaniyati tarixi boʻyicha yozilgan birinchi kitob ekanligi. Eng mashhur asari «al-Hikmat al-xolida» «Jovidone xirad» («Abadiy donishmandlik») - yunon, fors, arab manbalaridan olingan axloqiy pand-nasihatlar

majmuasi ekanligi. «Tahzib al-axloq» («Axloqni sayqallashtirish»)- ilmu nafsga oid falsafiy qarashlar, pand-nasihatlar, hissiyotlar va tuyg'ularning o'zaro aql va nafs bilan aloqasi, munosabati bag'ishlanganligi.

Yah'yo ibn Adiy (X asr)ning axloqiy ta'limoti. Yuksak fazilatlar: o'rtamiyonlik, insof, haybat, sabr, viqor, rafoqat, shafqat, vafo, kamtarlik va sahovat ekanligi. Yahyon ibn Adining ko'proq tarjima ishlari bilan shug'ullanganligi.

26-mavzu. Umar Xayyomning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari

Umar Xayyom (1048-1131)ning hayoti va ijodi. Tabiatshunoslik sohasidagi faoliyati. Isfahon rasadxonasida mutasaddilik qilganligi. «Malikshoh solnomasi» deb atalgan taqvimni yaratganligi. Tabiatshunoslikka bag'ishlangan uning o'nta risolasi bizgacha yetib kelganligi. Umar Xayyom borliq haqida. Borliq murakkab (ashyo, modda) va oddiy (birlamchl ibtidolar, birlamchi asoslar) narsalardan tashkil topganligi. Borliq, to'xtovsiz taraqqiyot holatida ekanligi. Borliq – ibtidosi va intihosi bo'lmagan doimiy oqim ekanligi. Umar Xayyomning ijtimoiy qarashlari. Uning "Ruboiyot"idagi inson, olam, modda va ruh haqidagi qarashlari.

27-mavzu. Tasavvuf falsafasi va uning Markaziy Osiyodagi oqimlari. Tasavvuf nazariyasi

Tasavvuf falsafasining paydo bo'lishi va rivoji: Abu Ali al-Xoris ibn Asad al-Anoziy al-Muhosibiy (781-857), Abu Boyazid Tayfur ibn Iso al-Bistomiy (857 v.e.), Mansur Xalloy (858-922), Abusayid Muhammad ibn Husayn as-Sulamiy(937-1021), Abu Said Mayhoni (967-1049), Yah'yo as-Suxravardiy (1191 v.e.), Jamoliddin Abul Faraj Abdurahmon ibn Ali Jandiy (1116-1201), Muhiyiddin ibn Arabiy (1165-1240), Jaloliddin Rumiy (XII asr).

Tasavvuf ta'limotining Markaziy Osiyoda shakllanishi va rivojlanishi. Yusuf Xamadoniy faoliyati. Xoja Ahmad Yassaviy qarashlari. Najmiddin Kubro ta'limoti. Xojagon tariqati. Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband qarashlari. Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan «rashha» - xulq-odob qoidalari va ularning ijtimoiy ahamiyati.

28-mavzu. Tasavvuf ilmini nazariy jihatdan shakllantirishda

Abu Homid G'azzoliy va Ibn Arabiylarning o'rni

Abu Homid G'azzoliy (1059-1111)ning hayoti va ijodi. G'azzoliy dunyoqarashi va ilohiyoti. «Ilyoi ulum ad-din» («Diniy ilmlarning jonlanishi»), «Tahofut ul-

falosifa) («Faylasuflarni rad etish»), «Kimyoi saodat» («Baxt-saodat yoki hikmat kaliti»), «Munqiz minal zilol» («Adashishlardan saqlovchi») nomi bilan mashhur bo'lgan asarlarida tasavvuf ilmining nazariy asoslarini yaratilganligi. G'azzoliyning bilish va axloq falsafasi.

Ibn Arabiy (1165-1240)ning hayoti va ijodi. Tasavvuf nazariyasi. Yirik asarlari bo'lgan «Al-futuhot ul-Makkiya» va «Fusus al-hikam»da ilgari surilgan vahdati vujud ta'limotining mohiyati va uning ahamiyati.

29-mavzu. Musulmon Ispaniyasi (Andaluziya)da falsafiy tafakkurning ravnaqi

Abu Bakr bin Yahyo ibn Bajja(vaf.1138)ning falsafiy qarashlari. Ibn Bajjaning falsafiy risolalari: «Insonning faol aql bilan qo'shilishi haqida», «Xayrlashuv maktubi», «Uzlatdagi hayot tarzi haqida», «Jon haqida». Uning insonlar yashaydigan olamni yagona haqiqiy olam deb bilganligi.

Ibn Tufayl (1110-1185)ning falsafiy qarashlari. Uning bilish nazariyasi. Bizgacha yetib kelgan yagona asari – «Yaqzon o'g'li Hay haqida qissa»sidagi falsafiy g'oyalar.

Ibn Rushd (1126-1198) falsafasi. Asarlari: «Raddiyani rad etish», «Mantiqqa oid asarlar», «Osmoniy jismlarning harakati haqida mulohazalar», «Zamon muammosi», «Birinchi harakatga keltiruvchi kuch haqida», «Abdiy va vaqtinchalik mavjudlik haqida mulohazalar», «Jon haqida fan muammolari», «Aql haqida mulohazalar», «Falsafa masalalari», «Din bilan falsafaning muvofiqligi haqida». Ularning mazmuni va mohiyati, ilmiy va falsafiy fikr rivojiga ta'siri.

30-mavzu. Fahriddin Roziy va Nasiriddin Tusiyning falsafiy qarashlari

Falsafa, kalom, mantiq va axloq falsafasining o'zaro munosabati. Fahriddin Roziy (1150-1209) ijodida kalom va falsafaning uyg'unligi. Nasiriddin Tusiyning (1201-1274) falsafiy, axloqiy va mantiqiy qarashlari, ularning keyingi falsafiy fikr rivojiga ta'siri.

KECHKI O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVRDA MARKAZIY OSIYO, YAQIN VA O'RTA SHARQDA FALSAFA VA MADANIYAT **Kechki o'rta asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda falsafa va madaniyat**

31-mavzu. Temur va Temuriylar davrida tabily-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol. Amir Temur va uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Temuriylar sulolasi davrida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilimlarning rivoji.

Fan va madaniyatning Samarqand va Hirot maktablari. Mirzo Ulug'bek (1394-1449)ning hayoti, siyosiy va ilmiy faoliyati. Ulug'bek astronomik maktabining tabiiy-ilmiy fanlarning rivojidadagi roli. Xirotda «Boysung'ur akademiyasi», Samarqandda «Ulug'bek astronomiya maktabi»ning tashkil etilishi.

Alouddin Ali Qushchi (1403-1474)ning tabiiy-ilmiy qarashlari va uning dunyoqarashining ahamiyati.

32-mavzu. Sa'duddin binni Umar Taftazoniyning falsafiy qarashlari

Sa'duddin binni Umar Taftazoniy (1322-1392)ning asarlari: «Tahzib al-mantiq val-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish»), «As-sa'diya», «Al-mutavval»(nutq san'atiga oid «Keng talqin»), «Al-maqosid at-tolibin» (falsafa va kalomga oid «Tolibi ilmlarning maqsadlari»), «Risola fi zovoe al-musallas» («Uch burchakning burchaklari haqida risola»). Ulardagi falsafiy g'oyalar va mantiq ilmining rivojlantirilishi.

Taftazoniyning qazo va qadar hamda iroda erkinligi haqidagi fikrlari.

33-mavzu. Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari

Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning (1339-1413) falsafiy qarashlari va mantig'i. Asarlari: «At-ta'rifob» («Ta'riflar»), «Usuli mantiqiyaya» («Mantiq usuli»), «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishning qoidalari haqida risola»), «Kubro» («Katta dalil bo'la oladigan hukm»), «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o'rta xulos»), «Sug'ro» («Kichik dalil bo'la oladigan hukm»), «Oinae gitanamo» («Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu»), «Risolat fi tahqiqil vujud» («Borliqni tahqiq qilish haqida risola»).

34-mavzu. Abdurahmon ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy qarashlari

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. Ibn Xaldun (1332-1406) va uning «Tarixga muqaddima» asari. Ideal jamiyat haqidagi ta'limoti. Adolatli jamiyat qurishning asosiy shartlari: odil (faylasuf) hukmdor, ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlashga asoslangan iqtisodiy faoliyat, qulay geografik muhit, madaniy taraqqiyot va ma'rifatparvarlik. Ibn Xaldun inson, uning jamiyatdagi mavqei, axloqiy normalari to'g'risida. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarining gumanistik xarakteri.

35-mavzu. Abdurahmon Jomiyning irfoniy qarashlari

Bedilning kalom va sufizmga munosabati. Bedil olamni bilish to'g'risida. Bedil ijodida inson va insoniylik muammosi. Bedil jamiyat va davlat to'g'risida. Uning axloq-odob haqidagi qarashlari. Bedil ijodining ijtimoiy ahamiyati.

39-mavzu. XIX asr boshida Movaraunnaxrda ijtimoiy- falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy fikrlar

XIX asr boshida Qo'qonda markazlashgan feodal davlatining qaror topishi. "Qo'qon adabiy muhiti"ning rivojlanishi. An'anaviy ma'rifatchilik namoyandalari: Nodira (1792-1843), Uvaysiy (1789-1850), Dilshod Barno (1800-1906)ning dunyoqarashi va ma'naviy merosi.

XIX asr boshida Xiva xonligida ma'rifatparvarlik g'oyalarning rivojlanishi. Muhammadrizo Ogahiy (1809-1894) va Komil Xorazmiy (1825-1899)ning hayoti, ijodi va dunyoqarashi; insonarvarlik, yaxshilik va adolat to'g'risidagi fikrlari. Avaz O'tar (1884-1919) ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari va ijtimoiy qarashlarining gumanistik xarakteri.

40-41-mavzu. Turkistonda XIX asrning oxiri va XX asr boshida ma'rifatparvarlikning rivojlanishi

Turkistonda ma'rifatchilik madaniyati. Jadidchilikning ma'rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni.

Ilk ma'rifatparvarlik davr namoyandalari: Ahmad Donish (1827-1897), Sattorxon Abdulg'ofurov (1843-1902), Berdah (1897-1900), Sattorxon Abdulg'afforov(1843-1901), Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850-1903) ning hayoti va ijodiy faoliyati.

Ahmad Donish(1827-1897)ning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari. Uning «Navodir ul-vaqo» asarida ijtimoiy-falsafiy fikrlarning bayon etilishi. Ahmad Donish davlatni boshqarish va uning shakllari to'g'risida. Uning axloqiy-estetik qarashlari va ularning ahamiyati.

Berdaq (1827-1900) va Sattorxon Abdulg'afforov(1843-1901)ning asarlaridagi tabiiy-ilmiy hamda falsafiy g'oyalar

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar *Berdaq* (1827-1900) va *Sattorxon Abdulg'afforov*(1843-1901)ning asarlaridagi tabiiy-ilmiy hamda falsafiy g'oyalar. Ularning jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivoji va xalqni ma'rifatli qilish bilan o'zaro uyg'unlikda ko'rilganligi. Ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning xalqning milliy o'zligini shakllanishiga ta'siri.

42-mavzu. Turkistonda XIX asrning oxiri va XX asr boshida jadidchilikning rivojlanishi

Jadidchilar harakatining nazariyotchilaridan biri *Mahmudxo'ja Behbudiy* (1875-1919) tomonidan dunyoviy bilimlar va madaniyatni targ'ib qilinishi. Behbudiy publisistik asarlarida millat hayotidagi illatlar va ijtimoiy masalalarning tahlili. Behbudiyning drammatik asarlarida axloqiy, ijtimoiy, estetik g'oyalarning o'ziga xos ifodalanishi.

*Munavvar Qori (1878-1931), Abdulla Avloniy(1878-1934)*larning mamlakatni taraqqiy ettirish maqsadida olib borgan ishlari va ijtimoiy-siyosiy fikrlari. Ularning Turkistonda milliy mustaqillik uchun harakatlarning rivojlanishidagi faol xizmatlari.

*Abdurauf Fitrat (1884-1938)*ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Fitrat tomonidan Turkiston ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi salbiy illatlarni bartaraf etish choralariga oid takliflari. Diniy mutaassiblik va aqidaparastlikka qarshi islom dini asoslarini ilmiy-nazariy o'rganishni targ'ib etilishining ahamiyati. «Rahbari Najot» asaridagi ijtimoiy g'oyalar. «Oyna» asarida milliy oilaviy muammolar va munosabatlar tahlil.

Abdulhamid Cho'lpon (1896-1937) ijodida ijtimoiy-siyosiy fikrlar, millatparvarlik g'oyalari. «Kecha va kunduz» romanida mustamlaka siyosatiga nafratning aks etishi va ijtimoiy-siyosiy hayotning tahlili. Cho'lpon nazmiy ijodida tun va zulmatning g'oyaviy munosabati. XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda «bosqinchilik» deb nomlangan milliy ozodlik harakatining mohiyati. Jadid ziyolilari istibdod siyosatining qurboni bo'lganligi va ular ijodining bugungi kundagi ahamiyati.

43-mavzu. Yangi va eng yangi davrda O'zbekiston madaniyati

Mustabid tuzum sharoitida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati. Mustamlakachilik siyosatining milliy madaniyat rivojiga salbiy ta'siri.

Mustaqillik arafasida va mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonning ma'naviy madaniy hayotini mustabid tuzum asoratidan ozod etish maqsadida amalga oshirilgan ishlar. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga munosabatning tubdan o'zgarishi. Ma'naviy ma'rifiy islohotlar - jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida. O'zbekiston jamiyatida ziyolilarning tutgan o'rni. Ta'lim taraqqiyoti, uning o'ziga xos xususiyatlari. Ilm-fan taraqqiyoti va uning ta'lim sohasi bilan integratsiyasi. Mustaqillik yillarida san'at sohasining rivojlanishi uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar.

44-mavzu. Yangi va eng yangi davrda Usmoniyilar davlati ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII–XIX asr boshlarida Usmoniylar imperiyasi madaniyati. Usmoniylar davlatida ijtimoiy falsafiy tafakkur rivoji. Ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishi. Eng yangi davrda Turkiya madaniyati.

45-46 -mavzu. Yangi va eng yangi davrda Eron va Afg‘oniston ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII –XX asr boshlarida Eron madaniyati. Ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishi. XVII–XX asr boshlarida Afg‘oniston madaniyati. Eng yangi davrda Eron madaniyati. Eng yangi davrda Afg‘oniston madaniyati.

47-mavzu. Yangi va eng yangi davrda Arab dunyosi ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII–XX asr boshlarida arab xalqlari madaniyati. An-Nahda harakati. Arab ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishi. Panarabizm mafkurasining shakllanishi. Eng yangi davrda arab mamlakatlari madaniyati.

48-mavzu. Yangi va eng yangi davrda Afrika xalqlari ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII–XX asr boshlarida Afrika qit’asi xalqlari madaniyatining xususiyatlari

HINDISTON FALSAFASI VA MADANIYATI

49-mavzu. Qadimgi Hindiston madaniyati

Hind vodiysida Moxendjo-Daro va Xarappa madaniyatining shakllanishi. Qadimgi hind jamiyatining vedalar va buddaviy davrlaridagi tuzilishi. «Artxa-shastra» qadimgi hind jamiyatini boshqarishga oid manba sifatida. Diniy e’tiqodlar: hinduizm, buddaviylik, jaynizm. Adabiyot. Qadimgi hind eposlari. Me’morchilik va tasviriy san’at.

50-mavzu. Vedalar falsafasi

Vedalarda oriylarning ibtidoiy dunyoqarashi aks etganligi. Dunyoning paydo bo’lishi va hamma narsa asosida birinchi ibtido sifatida suv turishi haqidagi rivo-yatlar. Madhiyalardan iborat bo’lgan Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Atxarvaveda. Agni, Indra, Mitra, Varuna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam ismli xudolarga murojaat. Vedalar bilan bog’liq sutralar avvalo diniy marosimlarga va huquq muammolariga bag’ishlanganligi.

51-mavzu. Upanishadlar falsafasi

XVII–XIX asr boshlarida Usmoniylar imperiyasi madaniyati. Usmoniylar davlatida ijtimoiy falsafiy tafakkur rivoji. Ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishi. Eng yangi davrda Turkiya madaniyati.

45-46 -mavzu. Yangi va eng yangi davrda Eron va Afg’oniston ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII –XX asr boshlarida Eron madaniyati. Ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishi. XVII–XX asr boshlarida Afg’oniston madaniyati. Eng yangi davrda Eron madaniyati. Eng yangi davrda Afg’oniston madaniyati.

47-mavzu. Yangi va eng yangi davrda Arab dunyosi ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII–XX asr boshlarida arab xalqlari madaniyati. An-Nahda harakati. Arab ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishi. Panarabizm mafkurasining shakllanishi. Eng yangi davrda arab mamlakatlari madaniyati.

48-mavzu. Yangi va eng yangi davrda Afrika xalqlari ijtimoiy falsafiy tafakkuri va madaniyati

XVII–XX asr boshlarida Afrika qit’asi xalqlari madaniyatining xususiyatlari

HINDISTON FALSAFASI VA MADANIYATI

49-mavzu. Qadimgi Hindiston madaniyati

Hind vodiysida Moxendjo-Daro va Xarappa madaniyatining shakllanishi. Qadimgi hind jamiyatining vedalar va buddaviy davrlaridagi tuzilishi. «Artxashastra» qadimgi hind jamiyatini boshqarishga oid manba sifatida. Diniy e’tiqodlar: hinduizm, buddaviylik, jaynizm. Adabiyot. Qadimgi hind eposlari. Me’morchilik va tasviriy san’at.

50-mavzu. Vedalar falsafasi

Vedalarda oriylarning ibtidoiy dunyoqarashi aks etganligi. Dunyoning paydo bo’lishi va hamma narsa asosida birinchi ibtido sifatida suv turishi haqidagi rivoyatlar. Madhiyalardan iborat bo’lgan Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Atxaraveda. Agni, Indra, Mitra, Varuna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam ismli xudolarga murojaat. Vedalar bilan bog’liq sutralar avvalo diniy marosimlarga va huquq muammolariga bag’ishlanganligi.

51-mavzu. Upanishadlar falsafasi

Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi. Borliqning yagonaligi haqidagi ta'limotning yangicha talqini. Hayot charxi g'oyasi. Upanishadlarning Bxagavadgita ko'rsatgan ta'siri. Upanishadlar falsafasining ko'p jihatlari Sankhya va Yoga, qisman Mimansa yo'nalishlari bilan umumiylikka ega ekanligi. Upanishadlarning Rammoxan Roy, Gandi va boshqa mutafakkirlarning dunyoqarashiga ta'siri.

52-mavzu. Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limoti

Budda ta'limotining yoyilishi va unda insonlarning tengligini e'lon qilinishi. Buddaviylikning qadimgi Hind jamiyatida mavjud bo'lgan tabaqa (kasta)larga bo'linishga va kohinlarga qarshi chiqqanligi. Barcha insonlarning tengligini e'lon qilinishi buddaviylikning keng yoyilishiga sabab bo'lganligi. Buddaviylikning falsafiy mazmuni. Draxma-zarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jaryonlarida harakatda bo'lib, har lahzada shu'lanib va o'chib turishi. Buddaviylikning bilish nazariyasi. Mavjud insoniy hayot – faqat ilgarigi mavjudlikning xulosasi ekanligi. Buddaviylikda dialektik xarakterga ega bo'lgan “bo'linib turuvchi oqim” tushunchasining ishlab chiqilganligi. Buddaviylikning yo'nalishlari: Vaybxashika, Sautrantika, Madxyamika, Yogachara.

53-mavzu. Jaynizm diniy-falsafiy ta'limoti

Jaynizm insonning jamiyatdagi o'rni. Inson shaxsining mohiyati ikki xususiyatga – moddiy (adjiva) va ruhiy (jiva)ga egaligi. Hayot charxi tushunchasi. Jaynizm ta'limotida sanaviyat (dualizm). Bu dunyoning yaratilmagan va buzilmaydigan ikki azaliy ibtido (javhar)dan yaratilganligi. Borliqning ikki shakli: mukammal va nomukammal borliq. Nomukammal borliqdan mukammallikka o'tishda hal qiluvchi vazifani shaxsning axloqiy tarbiyasi o'ynashligi. Aximsa, ya'ni hech bir tirik jonzodga ozor etkazmaslik talabi jaynizm axloqiy tizimining o'ziga xos xususiyati ekanligi. Jaynizmning axloqiy tamoyillari.

54-mavzu. Hind mumtoz falsafiy maktablari:

Hinduviylik Chorvoqlar, Yoga

Qadimgi Hindiston falsafasida moddiyunchilik tamoyillari. Lokayatalar («bu dunyoga yo'nalish») yoki chorvoqlar ta'limotiga ko'ra, inson to'rt moddiy unsurdan: tuproq, suv, olov, havodan tashkil topganligi. Chorvoqlar mantiqiy usullar yordamida an'anaviy aqidalarni shubha ostiga olganliklari. Hinduviylik falsafiy asosining olti tizimi. Hinduviylikning eng mashhur asari «Bxadavatgita» («Ilohiy qo'shiq») axloqiy masalalarga bag'ishlanganligi. Yoga – ruhiy tushunchalarni tekshirishga va amalda ruhiy ta'limotga katta e'tibor berganligi. Donishmand Patanjala qarashlari.

55-mavzu. Vaysheshika, Nyaya va Mimansa mumtoz falsafiy maktablari ta'limotlari

«Vayshe – shika – sutra» kitobining muallifi deb hisoblanadigan Kanadaning hikmatli soʻzlaridan iborat ekanligi. Nyaya maktabida asosiy eʼtibor mantiq va bilish nazariyasi masalalariga qaratilganligi. Mimansa tashqi dunyoning voqeʼligini bimoya qilib, uni Xudo yoki ruh tomonidan yaratilganligi va boshqarilishini inkor etganligi.

56-mavzu. Vedanta va Sankhya mumtoz falsafiy maktablari ta'limotlari

Vedanta yoki uttara-mimansa (sanskritcha – oliy tadqiqot) – hind falsafasining obʼyektiv idealistik tizimi ekanligi. Vedanta tarixidagi muhim bosqich Ramanudji va uning izdoshlarining (XVIII asr) ijodi ekanligi.

Sankhya asoschisi donishmand Kapila ekanligi. Sankhya ta'limotiga koʻra, dunyoning birinchi sababi – prakriti ekanligi. Prakritining his-tuygʻu bilan qabul qilib olinadigan dunyoviy mohiyatlarga aylanishi uch sifatiy unsur boʻlgan rajas (intilish), tamas (qorongʻilik) va sattva (aniqlik) taʼsirida kelib chiqishi mumkinligi. Sankhyada prakriti bilan bir qatorda, dunyoning moddiy asosidan mustaqil boʻlgan Purushi (mutlaq ruh)ning ham mavjudligi tan olinishi.

57-mavzu. Oʻrta asrlarda Hindiston madaniyati.

Guptalar sulolasi hukmronligi davrida madaniyat ravnaqi. Meʼmorchilik. Gʻor ichiga ibodatxonalar qurilishi. Haykaltaroshlikning rivojlanishi. Ilk oʻrta asrlarda mahalliy tillarda, shuningdek sanskritda sheʼriy asarlarni yaratish anʼanalarining shakllanishi. Jamiyatning maʼnaviy hayotida diniy pandnoma asarlar: “Maxabxarata”, “Ramayana”ning oʻrni va ahamiyati. Ibadatxonalarda qoʻshiq va raqs sanʼati markazlarining tashkil topishi.

58-mavzu. IV-X asrlarda Hindistonda falsafiy fikrlar rivoji

Bxakti harakatining rivojlanishi. Chorvaka-Lokayata, Sankhya, Nyaya, Mimansa, Vaysheshika falsafiy taʼlimotlarining sharhlanishi. Ishvarakrishna risolasi. Dunyoning moddiy ibtidosi – prakriti (modda, tabiat) ekanligi. Mutlaq ruh-purushining mavjudligi. Patanjali yogaga bagʻishlab yozgan asarining Vyasa va Vachaspati tomonidan sharhlanishi. Mimansaning Vedalarga qaytishga chaqirigʻi. Prabhakara va Kumarila taʼlimoti.

59-mavzu. Hindistonda Vedanta va buddaviylik diniy-falsafiy

ta'limotlarining rivojlanishi

Vedanta so'zining ma'nosi. «Vedanta sutra»ning tarkibiy tuzilishi. Vedanta rivojida Shankara (VIII–IX asr) o'rtasi va Ramanudji (XII–XIII asr) sharhlarining ahamiyati. Madxva, Vallabxa va Nimbaraka sharhlari. Braxma dunyo mavjudligining mutlaq ruhi ekanligi. Hinduviylik islohcilari bo'lgan Vivekananda (1862-1902), Ramana Maxarashi va boshqalarning vedanta ta'limotiga tayanganliklari.

Buddaviylik ta'limoti markazida to'rt xayrli haqiqatning yotganligi. Insonning mavjudligi azob-uqubat bilan chambarchas bog'liq ekanligi.(1). Azob-uqubatning sababi shodlik va ehtiros orqali qayta tug'ilishga olib boruvchi ishtiyoq (trshna) ekanligi (2). Azob-uqubat sababini bartaraf etish shu ishtiyoqni yo'qotishda ekanligi(3). Azob-uqubatni bartaraf etishga olib boruvchi yo'l – to'g'ri fikr yuritish, to'g'ri qaror chiqarish, to'g'ri nutq, to'g'ri hayot, to'g'ri intilish, to'g'ri diqqat-e'tibor va to'g'ri mushohada. (4).

60-mavzu. XI-XIV asrlarda Hindistonda diniy-falsafiy fikrlar rivoji.

Bxakti harakati va uning diniy-falsafiy ta'limoti. Kabir va Tulsidas hayoti va ijodi. «Sarva-darshana-sangraxa» muallifi. Madxavacharya (XIV), Vedalar va Upanishadlar sharhchisi Sayana (XIV).

61-mavzu. Islomning Hindistonga yoyilishi va tasavvuf falsafasining shakllanishi.

XI-XII asrlar davomida Hindistonga Mahmud G'aznaviy va boshqa fotihlar tomonidan qilingan yurishlar natijasida islomning yoyilganligi. Suxravardiya, Chishtiya va Naqshbandiya kabi tasavvuf oqimlarining kirib borishi. Dehli sultonligi.

62-mavzu. Amir Xisrav Dehlaviyning falsafiy qarashlari.

Amir Xisrav Dehlaviyning (1253y.tug'ilgan) Hindiston fani va madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi. Chishtiya tariqatiga mansub bo'lgan Xisrav Dehlaviy 1 million misradan iborat asar yozganligi. Mashhur «Hamsa», «Hasht bexisht» asarlari. Uning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy ta'limoti. «Ijozi Xusravi» («Xusrav ajoyibotlari») kitobida falsafiy va axloqiy masalalar: tasavvufiy g'oyalarning yoritilganligi.

63-mavzu. Hindistonda Boburiylar davri ijtimoiy falsafiy tafakkur rivoji va madaniyati.

Bobur va uning vorislari hukmronligi davrida hind madaniyatining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishi. Me'morchilik. Miniatyura san'ati. Hindistonda islom tafakkuri yo'nalishlari va tasavvuf. "Sulxi kulliy".

64-mavzu. Shoh Valiullohning ijtimoiy-siyosiy qarashlari

XVIII asrda ijod etgan buyuk hind mutafakkiri Valiulloh o'z davrining ensiklopedik olimi ekanligi. Valiulloh o'zining «Hujjatul Alloh al-Balig'on» asarida ideal jamiyat tuzishni orzu qilganligi. U Boburiylar sulolasining qayta tiklanishi tarafdori bo'lganligi. Ilohiyot va falsafaga oid 50 dan ortiq asarida ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqqanligi. Uning fikricha, hinduviylik dini bilan islomning mohiyati bir ekanligi. Valiulloh hindlar bilan musulmonlarning birligi uchun kurashganligi. U odil jamiyat haqida fikr yuritib, inson faqat «Alloh bandasi» emas, balki muayyan jamiyatning a'zosi ekanligini ta'kidlaganligi. Uningcha, har bir kishi davlat oldida o'z javobgarligini his etishi kerakligi.

65-mavzu. XVIII asrda Hindistonda «Uyg'onish davri» falsafasi.

Ma'rifatchilikning rivojlanishi.

Ram Mohan Ray va Mirzo Asadulloxon G'olibning ijtimoiy-axloqiy qarashlari

XVIII asr o'rtalarida Boburiylar sulolasining tugatilishi. XIX asr o'rtalarida inglizlar Hindistonda o'z hokimiyatlarini o'rnatganliklari. Ular Hindistonda siyosiy va iqtisodiy hukmronligini mustahkamlash maqsadida hind xalqini g'oyaviy jihatdan bo'ysundirishga, missionerlar va ularning turli tashkilotlari yordamida hindistonliklarni xristian diniga e'tiqod qildirishga uringanliklari. Butun mamlakat bo'ylab «xristianlikdan xalos bo'lish», «o'z dinini himoya qilish uchun kurash» shiorining keng yoyilganligi.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Hindistonda ma'rifatparvarlik va diniy islohcilik g'oyaviy oqimi vujudga kelganligi. Bu oqimning ilk namoyandasi bengaliyalik Ram Mohan Ray (1772-1833) mamlakatdagi qashshoqlikni ma'rifatning yo'qligidan deb bilganligi. U dunyoviy maktablar ochib, bir necha gazetalarni nashr etganligi. U hind xalqini Yevropa madaniyati bilan tanishtirishga harakat qilganligi.

Mirzo G'olib (1797-1869) qoldirgan boy ilmiy-adabiy meros faqat Hindiston va Pokiston xalqlarining emas, balki jahon adabiyotining, barcha erksevar xalqlarining boyligi ekanligi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida Mirzo G'olibning bir forsiy kulliyoti va uch devoni saqlanayotganligi. 1965 yili «O'zbekiston» badiiy adabiyot nashriyoti Mirzo G'olibning g'azallar to'plamini «Shaydo» nomi bilan o'zbek tilida nashr etganligi. Uning bobokaloni Tursunbekxon samarqandlik bo'lib, turk

xonadoniga mansub amir ekanligi. Tursunbekxon o'g'li Qo'qonbekxon, ya'ni mutafakkirning bobosi 1730 yilda Samarqanddan Hindistonga ko'chganligi. Mirzo G'olib ikki tilda – urdu va forsiyda, nasrda ham, nazmda ham samarali ijod etgan shoir, adib, tarixchi va jamiyatshunos ekanligi.

66-mavzu. Dayyananda Sarasvati, Sayid Ahmadxon, Ramakrishnaning diniy-falsafiy va ma'rifiy qarashlari

Ma'rifatparvar mutafakkir Dayyananda Sarasvati (1824-1883) «Vedalarga qaytish» shiorini maydonga tashlaganligi. 1887 yili Madrasda «hindlarning eski shakldagi dinini himoya qilish va xristian missionerlariga qarshi kurash» maxsus jamiyati tuzilganligi. Xristian missionerlari va ularning mafkurasiga Sayid Ahmadxon (1817-1848) ham qarshi chiqqanligi. U ma'rifatparvar va islom dini islohchisi ekanligi. Sayid Ahmadxon g'oyalari uning shogirdlari – Altof Husayn Xoli va Shibli Nu'moniy davom ettirganliklari.

Ramakrishna Paramaxansa (1834-1886) diniy islohchilardan biri bo'lib, Vedanta falsafasini o'zi yashagan davrga moslab isloh qilishni targ'ib etganligi. U o'z ta'limotini «insonga xizmat qiluvchi ta'limot» deb hisoblanganligi. Uningcha, har bir insonda xudoni ko'rmoq kerakligi.

67-mavzu. Qadimgi Xitoyda madaniyat va falsafiy tafakkurning rivojlanishi. Xitoy ma'rifatchiligining mumtoz kitoblari

Qadimgi Xitoy madaniyatining o'ziga xosligi. Xitoy iyerogliflar, Xitoy devoirining qurilishi. Terakotta haykallari, xitoy chinnisi.

Buyuk ipak yo'li savdo-sotiq, diplomatiya aloqalari, shuningdek diniy va ma'naviy qadriyatlarni tarqalish yo'li sifatida.

Falsafaning “oltin asri”. Konfutsiy falsafasi. Daosizm ta'limotining mohiyati.

Xitoy ma'rifatchiligi mumtoz kitoblarining kelib chiqishi. “O'zgarishlar kitobi” (mil.av.XII-VI asrlar)da dunyo va inson haqidagi birinchi tasavvurlar aks ettirilganligi. Ashulalar kitobi (mil.av. XI–VI asrlar). Kitobning Xitoy she'riyati uchun namuna bo'lganligi. Tarix kitobi (mil.av. birinchi ming yillik boshi) tarixiy voqealarni aks ettirgan rasmiy hujjatlar to'plami ekanligi. “Bahor va kuz” kitobi Lu davlatining (mil.av.VII-V asrlar) solnomasi ekanligi.

Yuzta maktab davri (mil.av.VI–II asrlar). Ilk konfusiychilikni davlat mafkurasiga aylantirganligi. Dun Chjunshu mumtoz kitoblarning muallifi sifatida Konfusiyni ko'rsatganligi. Urf-odatlar va marosimlar kitobi (mil.av. IV-I asrlar).

**68-mavzu. Qadimgi Xitoyning asosiy falsafiy maktablari.
Konfusiylar va konfusiychilik**

Sin sulolasining 221 yilda hokimiyat tepasiga kelishi. U Xitoyni yagona davlatga qaytadan birlashtirganligi. Xan sulolasi tarixchisi Sima Tan (vaf. mil.av. 110 yil) tomonidan nomlari keltirigan olti falsafiy yoʻnalish:

1. In va Yan maktabi (In Yan szya);
2. Konfusiychilik maktabi (Ju szya);
3. Moistlar maktabi (Mo szya);
4. Ismlar maktabi (Min szya);
5. Huquqshunoslar maktabi, legistlar (Fa szya);
6. Yoʻllar va kuch-quvvat maktabi, daochilar(Dao de szya, Dao szya).

Konfusiylar qadimgi ajdodlar donishmandligining sharhlovchisi. Osmon va ruhlar. Oʻtmishni muqaddaslashtirish. Axloq. Davlatni boshqarish. Konfusiylar adolat haqida. Konfusiylar «Olijanob er kishi» aqidasi. Konfusiylar bilim haqida. Konfusiychilik – Konfusiylar izdoshlarining taʼlimoti ekanligi.

69-mavzu. Men szining borliq, jamiyat va inson haqidagi taʼlimoti.

Men-szi (mil.av. 372-289) inson tabiati haqida. Men-szi olijanoblik (syao ti) haqida. Uning hukmdor haqidagi fikrlari. Hukmdorga xos xususiyat insonparvarlikka (Jen chjen) amal qilmoq ekanligi. Insonning osmon qonunlari asosida yashash aqidasi.

70-mavzu. Syun-szining borliq, bilish nazariyasi va jamiyat haqidagi taʼlimoti

Syun-szi konfusiychilik maktabining yirik vakili ekanligi. Uning Osmonni moddiyuncha tushunishi. «Suv va olovda energiya bor, ammo hayot yoʻq; koʻkatlar va daraxtlarda hayot bor, ammo ong yoʻq; qushlar va hayvonlarda ong bor, ammo burch his-tuygʻusi yoʻq. Insonda energiya, hayot, ong va bundan tashqari burch his-tuygʻusi bor. Shuning uchun u osmon ostidagi dunyoning eng olijanob mavjudotidir» gʻoyasi. Syun-szi til va aql haqida.

71-mavzu. Moizm. Konfusiychilikning tanqidi. Bilish nazariyasi

Moizmning konfusiychilik taʼlimotiga tubdan qarama-qarshiligi. Jamiyat, umumiy muhabbat haqidagi taʼlimot. Pasifizm (hech narsaga ozor bermaslik) tamoyili. Mo-szi (mil.av. 479–391) hayoti va dunyoqarashi. Moizm bilim haqida. Mo-szining mantiqiy taʼlimoti.

72-mavzu. Daosizm. Lao-szi qarashlari va «Dao de szin» kitobi

Dao maktabining vujudga kelishi. Daosizmning uch maktabi: Yan Chju, Lao-szi va Chjuan-szi. Daosizm tabiat va inson haqida. «Dao» dunyoning ibtidosi, asosi va qonuni. «Dao de szin» kitobi borliq haqida. Daosizm insonning bosh hayotiy vazifasi haqida. Chjuan-szi «tabiiy» tartib haqida. Uning tomonidan haqiqatni bilish usulining ishlab chiqilishi. Inson va olam yagona birliqni tashkil etishi.

